# MAHALLABAY ISHLASH VA TADBIRKORLIKNI RIVOJLANTIRISH AGENTLIGI LAOG (LOYIHANI AMALGA OSHIRISH GURUHI)NING XORIJIY KREDIT LINIYA BO‘YICHA BOSH MUTAXASSISI LAVOZIMIGA OCHIQ TANLOV E’LON QILADI

## LAVOZIM MAJBURIYATLARI

1. Loyiha doirasidagi kredit liniya komponentining umumiy bajarilishini ta’minlash va loyiha menejeriga muntazam hisobot berib borish.
2. Zarurat tug‘ilganda vazifasi yuzasidan hududlar(viloyatlar)ga mehnat safari qilish.
3. Hududlarda kredit liniya bo‘yicha tayinlangan hududiy mutaxassislar faoliyatini muvofiqlashtirish.
4. Loyihada ishtirok qiladigan tijorat banklariga kredit liniya bo‘yicha tegishli ma’lumotlarni berish va tushuntirish, berilgan savollarga javob berish va ular uchun davra suhbatlari va seminarlar tashkil etish.
5. Loyihada ishtirok qiladigan tijorat banklarining kredit liniya bo‘yicha qo‘llanma mezonlari, shartnomalar shartlariga rioya etishini nazorat qilish.
6. Loyihada ishtirok qiladigan tijorat banklari tomonidan taqdim qilingan sub-loyihalarni kredit liniya mezonlari va qoidalariga muvofiqligini ko‘rib chiqish, sub-loyihalar bo‘yicha xalqaro moliya institutiga kiritiladigan arizalarni tayyorlanishini ta’minlash.
7. Loyihada ishtirok qiladigan tijorat banklariga sub-loyihalarni jalb qilish va ularni tanlashga ko‘maklashadigan takliflar ishlab chiqish va maslahatlar berish.
8. Kredit liniyasi bo‘yicha mablag‘larni tasdiqlangan rejadan qolmasdan o‘zlashtirilishini ta’minlash.
9. Xalqaro moliya instituti (XMI) tartib taomillari bo‘yicha hisobotlarni tayyorlash.

## QO‘YILADIGAN TALABLAR

Iqtisodiyot, moliya, menejment, qishloq xo‘jaligi iqtisodiyoti yoki injiniring yo‘nalishlari bo‘yicha oliy ma’lumotga ega va tegishli sohada kamida 3 yillik tajribaga ega bo‘lishi, jamoada ishlash ko‘nikmalariga ega bo‘lishi kerak.

“Climate-smart” va “yashil” texnologiyalarni amaliyotga tatbiq qilish bo‘yicha bilim yoki tajribaga ega bo‘lishiga ustunlik beriladi.

Xalqaro moliya institutlari bilan o‘zaro hamkorlik tajribasiga ega bo‘lishiga ustunlik beriladi.

Yuqori kompyuter ko‘nikmalariga ega bo‘lishi kerak.

Texnik ingliz tilini bilishi talab qilinadi.

## ISH SHAROITLARI

**Ish kunlari:** dushanba, seshanba, chorshanba, payshanba, juma. Dam olish kunlari: shanba, yakshanba.

**Ish vaqti:** 09:00 dan 18:00 gacha.

**Ish joyi:** Toshkent shahri.

## TASHKILOT TO‘G‘RISIDA MA’LUMOT

**Manzil:** O‘zbekiston Respublikasi Toshkent shahri Qoratosh ko‘chasi 1-uy, 10-qavat.

**Telefon raqam:** +998712386933

**Elektron manzil**: fcd.agency@mineconomy.uz va sredp.ade@gmail.com

**Qo'shimcha ma'lumot:** LAOG (Loyihani amalga oshirish guruhi) Xalqaro moliya instituti ishtirokida 2022–2026-yillar davomida respublikamizda qishloq tadbirkorligini rivojlantirishga qaratilgan loyihani amalga oshirish uchun tashkil qilinadi.

*Ma'lumotnomangiz (obyektivka, rezyume, CV)ni siz talabgor bo'lgan lavozimni aniq ko'rsatgan holda yuqorida keltirilgan elektron manzillarga yuborishingizni so'raymiz.*